

**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining O'zbek tiliga  
davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan tashkil etilgan  
“Milliy g'urur” chellenji  
NIZOMI**

**I. Umumiy qoidalar, maqsad va vazifalar, chellenjni tashkil  
etish tartibi, shartlari:**

1.1. “**Milliy g'urur**” chellenji-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida ona tiliga muhabbat, vatanparvarlik tuyg'ularini keng targ'ib qilish doirasida tashkil etilgan.

1.2. Chellenj ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, she'riy va badiiy kitoblar asosida tashkil etiladi.

1.3. Chellenjni tashkil etish va o'tkazish O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi tomonidan o'tkaziladi.

**II. Tanlovdan ko'zlangan maqsad va vazifalar**

2.1. Chellenjni tashkil etishdan asosiy maqsad – o'qituvchilar, talabalar va yoshlar o'rtasida til ma'daniyati va notiqlikni oshirish, ularning intellektual salohiyati va ma'naviy saviyasini yuksaltirishdan iborat.

2.2. Chellenjni tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko'zda tutiladi:

– yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish orqali ularning Vatanimiz tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy hayot haqidagi tushuncha va bilim-ko'nikmalarni shakllantirish;

– yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish orqali ularning turli xil aqidaparastlik va zararli oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish;

– milliy va jahon adabiyoti durdonalari, adiblar she'rlarini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish, kelajakda yoshlar tomonidan badiiy yetuk, yuqori saviyali she'rlar yaratilishiga turtki bo'lish;

– ijodkor, iste'dodli va iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish, ularning o'z aql-zakovatlarini namoyon etishlariga ko'maklashish.

**III. Tanlovni tashkil etish tartibi**

Universitet bo'yicha:

Chellenjda professor-o'qituvchilar, talabalar hamda magistrilar ham qatnashishi mumkin.

Mazkur chellenj bo'yicha video materiallar universitet rasmiy kanalida e'lon qilinadi.

#### **IV. G'oliblarni taqdirlash**

4.1. G'oliblarni taqdirlash marosimida universitet rahbariyati tomonidan 1-o'rin 1 mln, 2-o'rin 700 ming, 3-o'rin 500 ming so'm miqdorida pul mukofotlari va universitet rektorining I, II va III darajali diplomlari bilan taqdirlanadi.